UO‘K 81

TIL VA OLAMNING RUHIY SHAKLLANISHI: LEO VAYSGERBER KONSEPSIYASINING LINGVOFALSAFIY TAHLILI

Olaf Günther,
Berlin Humboldt universiteti professori,
filologiya fanlari doktori, Germaniya
guenther@mauritianum.de
Ro‘ziyev Yarash Bozorovich,
Buxoro davlat universiteti dotsenti
filologiya fanlari doktori(DSc)
y.b.ruziev@buxdu.uz

Annotatsiya. *Mazkur maqolada yosh Humboldt chilar maktabining yirik vakili Leo Vaysgerberning Til va olamning ruhiy shakllanishi nomli maqolasi lingvofalsafiy nuqtayi nazardan tahlil qilinadi. Unda Vilhelm fon Humboldt ning Energeia haqidagi ta’limoti asosida ishlab chiqilgan lisoniy quvvat konsepsiyasi, olamni tilda ifodalash, olam lisoniy manzarasi, lisoniy olam hamda oraliq olam tushunchalarining nazariy mohiyati yoritiladi. Shuningdek tilning inson tafakkuri, ruhiy faoliyati va olamni konseptuallashtirishdagi o‘rni ochib berilib, L.Vaysgerber qarashlarining zamonaviy antropotsentrik va kognitiv tilshunoslik rivojidagi ahamiyati asoslanadi.*

Kalit so‘zlar: *lisoniy quvvat, ona tili, til hamjamiyati, olamni tilda ifodalash, olam lisoniy manzarasi, lisoniy olam, ruhiy shakllanish, antropotsentrik tilshunoslik.*

ЯЗЫК И ДУХОВНОЕ СТАНОВЛЕНИЕ МИРА: ЛИНГВОФИЛОСОФСКИЙ АНАЛИЗ КОНЦЕПЦИИ ЛЕО ВАЙСГЕРБЕРА

Аннотация. *В данной статье с лингвофилософской точки зрения анализируется статья крупного представителя школы неогумбольдтианцев Лео Вайсгербера ”Язык и духовное формирование мира». В ней освещается теоретическая сущность концепции языковой энергии (energeia), разработанной на основе учения Вильгельма фон Гумбольдта, а также понятий языкового видения мира, языковой картины мира, языкового мира и промежуточного мира. Также раскрывается роль языка в человеческом мышлении, духовной деятельности и концептуализации мира, обосновывается значимость взглядов Л. Вайсгербера для развития современного антропоцентрического и когнитивного языкознания.*

Ключевые слова: *языковая энергия, родной язык, языковое сообщество, языковое видение мира, языковая картина мира, языковой мир, духовное формирование, антропоцентрическое языкознание.*

LANGUAGE AND THE SPIRITUAL SHAPING OF THE WORLD: A LINGUISTIC-PHILOSOPHICAL ANALYSIS OF LEO WEISGERBER’S CONCEPTION

Abstract. *This article provides a linguo-philosophical analysis of “The Spiritual Formation of Language and the World”, an article by Leo Weisgerber, a major representative of the Young Humboldtian school. It illuminates the theoretical essence of the linguistic energy concept, developed based on Wilhelm von Humboldt’s doctrine of “Energeia”, as well as the concepts of expressing the world in language, the linguistic world-picture, the linguistic world, and the intermediate world. Furthermore, the role of language in human thought, mental activity, and the conceptualization of the world is revealed, substantiating the significance of L. Weisgerber’s views in the development of modern anthropocentric and cognitive linguistics.*

Keywords: *linguistic energy, native language, language community, expressing the world in language, linguistic world-picture, linguistic world, spiritual formation, anthropocentric linguistics.*

Kirish. Mazkur maqola mashhur nemis tilshunos olimi, yosh Humboldt chilar oqimining yirik vakili Leo Vaysgerberning (1899-1985) 1964-yilda e’lon qilgan *Sprache und geistige Gestaltung der Welt* [5] maqolasi asosida yozilgan. L. Vaysgerber umumiy va nazariy tilshunoslik asoschisi V.

fon Humboldt ning tilga oid ta’limotini rivojlantirdi, V. Humboldt inson til bilan insondir va u borliq va olamni til orqali idrok etadi desa, L. Vaysgerber uning g‘oyasini rivojlantirib olamni idrok etish *lisoniy quvvat* (Sprachkraft) va *ona tili* orqali amalga oshishini ta’kidlaydi. Zamonaviy tilshunoslik yo‘nalishlaridan bo‘lgan antropotsentrik paradigmada keng qo‘llanayotgan *olamning lisoniy manzarasi* (sprachliches Weltbild) tushunchasi ham aynan L. Vaysgerberga tegishlidir. Binobarin u yaratgan nazariya hozirgi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan.

Mavzuga doir adabiyot tahlili. Olam manzarasining barcha zamonaviy lingvistik talqinlari, avvalo XIX–XX asrlar nemis tilshunosligi yutuqlariga, xususan, Vilhelm fon Humboldt ishlariga tayanadi. Yevropa nazariy tilshunosligi an’anasida V. Humboldt til falsafasining asoschilaridan biri hisoblanadi. Uning lingvofalsafiy konsepsiyasi turli nuqtayi nazarlardan – tipologik, sinxron va onomasiologik jihatdan — tilshunoslik adabiyotlarida batafsil tahlil qilingan [6; 9; 13; 15]. Biz esa faqat V. Humboldt ning XX–XXI asr tilshunoslari tomonidan ishlab chiqilgan olam manzarasi konsepsiyasiga asos bo‘lgan g‘oyalariga to‘xtalamiz.

V. Humboldt o‘zining lingvofalsafiy konsepsiyasida tilni xalq xarakterini anglash mumkin bo‘lgan eng muhim hodisalardan biri deb hisoblaydi: xalqning fikrlash tarzi, falsafasi, ilmi – bularning barchasi tilda o‘z aksini topadi. Nutq tovushlari vositasida chuqur ichki va izsiz kechadigan ruhiy-aqliy faoliyat “moddiylashadi va hissiy idrok uchun ochiq holga keladi” [8, 96]. Olimning fikricha, til faoliyat mahsuli emas, balki xalq ruhining “uzluksiz faoliyati” bo‘lib, u “tovushni fikr ifodasiga aylantirish”ga intiladi [8, 87–88, 91]. V. Humboldt da tilning tabiati tashqi va ichki shakllardan, boshqacha aytganda tovush va mazmun shakllaridan tashkil topadi. Tadqiqotchining asosiy e’tibori tilning ichki shakliga qaratilgan bo‘lib, u aynan tilda mujassamlangan dunyoqarash sifatida talqin qilinadi. Zero har bir til muayyan olamni ko‘rish tarzining yaxlitligini hosil qiladi, o‘zida millatning olam haqida shakllantirgan barcha tasavvurlarini va olam unda uyg‘otgan barcha his-tuyg‘ularni ifoda etadi [9, 27].

Demak, til olamni uni yaratgan xalq qanday nuqtayi nazardan ko‘rsa, xuddi shu nuqtayi nazardan aks ettiradi.

Dunyoqarash va til o‘rtasidagi munosabat haqida boshqa nemis faylasuf va filologlari ham mulohaza yuritganlar. Jumladan Yohann Gotfrid Herder til, san’at va she’riyatni xalq ongi va milliy madaniyat ifodasi sifatida talqin qilgan; Heyman Shteyntal etimologiyani muayyan til jamoasidagi dastlabki nomlash tamoyillarini ochib berish uchun alohida ahamiyatga ega deb hisoblagan; Vilhelm Maks Vundt psixologiya va tilshunoslik munosabatlariga qiziqqan; Frans Nikolaus Fink til kategoriyalari bilan lingvomadaniy jamoa vakillarining xarakter xususiyatlari o‘rtasidagi bog‘liqlikka urg‘u bergan; Karl Fossler esa tilni madaniyat vositasi sifatida ta’riflagan [7; 10; 11].

Biroq V. Humboldt nazariyasini eng izchil rivojlantirgan olim Xarkov lingvistik maktabi vakili Aleksandr Afanasyevich Potebnya bo‘ldi. U V. Humboldt intuitiv tarzda ilgari surgan milliy tilning “ichki shakli” va “xalq ruhi” muammosini til va fikr o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik masalasiga ko‘chirdi hamda uni madaniy-genetik evolyutsionizm nuqtayi nazaridan talqin qildi:

“Ma’lumki ko‘plab avlodlar mehnati bilan qo‘lga kiritilgan haqiqat keyinchalik hatto bolalarga ham osonlik bilan o‘zlashadi, taraqqiyotning mohiyati ham ana shundadir; biroq inson bu taraqqiyot uchun tildan qarzdor ekanligi kamroq anglanadi. Til xalqlar taraqqiyotining sharti bo‘lgani kabi, alohida shaxs tafakkurining ham organidir. Avlodlar uchun ajdodlar tomonidan tayyorlab qo‘yilgan faoliyatning keng asosi na fiziologik irsiyatda, na o‘tmish hayotining moddiy yodgorliklaridadir. Shubhasiz inson yovvoyi holda qolgan bo‘lar edi…” [12, 182–183].

XX asr boshida V. Humboldt g‘oyalarining davomiy rivoji Germaniyadagi yosh Humboldt chilar asarlarida namoyon bo‘la boshladi. 1920–1940-yillarda L. Vaysgerber, Y. Trir, V. Porsig, G. Ipsen, H. Gyuntert, F. Shtro, G. Shmidt-Ror, H. Brinkman va boshqalar, 1950-yillarda esa H. Gipper, O. Buxman, Y. Knoblox va boshqa olimlar bu yo‘nalishda faoliyat olib bordilar. AQShda E. Sepir va B. Uorf, shuningdek, yevropalik faylasuf olimlardan E. Kassirer, H. Yunker va A. Firkandt tadqiqotlarida ham ushbu qarashlar rivojlantirildi. Mazkur olimlarni tilning gnoseologik vazifasini umumiy tarzda tushunish birlashtirib turardi.

Umuman olganda yosh Humboldt chilar termini XX asrning 20-yillari boshida Germaniya tilshunosligida yuzaga kelgan va V. Humboldt ning ilmiy-ma’naviy merosiga, ayniqsa, muayyan tilni shu tilga ega bo‘lgan til jamoasi amal qiladigan olamni bilishning o‘ziga xos yo‘li sifatida tushunish haqidagi ta’limotiga ilmiy qiziqishni qayta tiklashni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ygan lingvofalsafiy yo‘nalishni anglatadi [15, 5].

Biroq “Humboldt renessansi” [14, 141] nafaqat Germaniyada, balki AQShda ham kechganini hisobga olib, tilshunoslikda yosh Humboldt chilikning ikki tarmog‘i, nemis va amerika tarmog‘i mavjudligi haqida gapirila boshlandi. Olamning lisoniy manzarasi konsepsiyasining shakllanishida yosh Humboldt chilikning

nemis va amerika tarmoqlaridagi asosiy namoyandalar bo‘lgan Yohann Leo Vaysgerber, Edvard Sepir va Benjamin Li Uorfning asarlari muayyan rol o‘ynadi.

Ta’kidlash kerakki, L. Vaysgerber V. Humboldt ning eng “ortodoksal shogirdi” hisoblanadi [9, 90]. U yangi falsafiy ta’limot yaratishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ymagan, aksincha V. Humboldt ning tilning ichki shakli haqidagi asarlaridan o‘zlashtirilgan til mazmunining idioetnik xususiyati g‘oyasini izchil rivojlantirgan [9; 17–20].

Tadqiqot metodologiyasi. Til ruhiy hayotning bir ko‘rinishi ekanligi hamda uning barcha tarkibiy qismlari aynan shu jihatdan, ya’ni ruhiy hodisa sifatida o‘rganilishi lozimligi bugungi kunda tilshunoslikda yana e’tirof etilmoqda. Bu biroz keskin tuyulishi mumkin, biroq haqiqat shundaki, uzoq vaqt mobaynida Yevropa tilshunosligida ushbu asosiy tamoyil yetarli darajada e’tiborga olinmadi. Hatto so‘nggi yillargacha Amerika tilshunosligida (va u bilan birga xalqaro tilshunoslikning katta qismida) *mohiyat (meaning),* ya’ni tilning ruhiy tomoni, tadqiqotning bevosita predmeti sifatida emas, balki *metalingvistika* doirasiga mansub hodisa sifatida tadqiq etildi. Faqat yaqindagina bu qarash o‘zgardi va mohiyat yana tilshunoslik tadqiqotining markaziy obyekti sifatida tan olina boshlandi. Tilshunoslik sohasiga bunday munosabat tabiiy ravishda tilning boshqa fanlar qatorida, ijtimoiy hayotda va ayniqsa, ta’lim tizimida qanday baholanishini belgilaydi.

Shunday ekan, tovush tizimini o`rganishga bag‘ishlangan ko‘plab tadqiqotlar hamda tildan uzoqlashgan strukturalizm o‘z chegaralarini anglay boshlagan bir paytda tilning ruhiy markaziga eltuvchi ilmiy yondashuvlarni qayta ko‘rib chiqish va yanada boyitish uchun hozir ayni qulay imkoniyatdir [5, 5].

Bu yo‘nalishni shakllantirish uchun qariyb qirq yillik ilmiy izlanish va bahs-munozaralar zarur bo‘ldi. Tilning ruhiy olamini ochib berishning dastlabki bosqichida umumiy tarzda bayon etilgan ko‘plab masalalar endi yanada chuqur va differensial tahlil qilinadi. Shu munosabat bilan *Sprache – Schlüssel zur Welt* (o‘zb. Til - olamni anglash kaliti) nomli to‘plamda ilgari surilgan g‘oyalar biz uchun muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi [4]. Ayniqsa, E. Rothakker, J. Derbolav, E. Hayntel, H. Glinz va H. Shorerning ishlarida ko‘rsatilgan yechimini kutayotgan asosiy nazariy masalalarga e’tibor qaratiladi.

Tilning ruhiy mohiyatiga asoslangan nazariyaning markazida quyidagi oltita asosiy qoida turadi:

1. Til - insonga ato etilgan ruhiy quvvatdir;
2. Ushbu lisoniy quvvatning asosiy faoliyat shakli - olamni tilda ifodalashdir (*Worten der Welt*);
3. Olamni tilda ifodalashning tarixiy shakli alohida xalq va til jamoalarining ona tillari hisoblanadi;
4. Har bir ona tilining asosiy yutug‘i o’ziga xos *olamning lisoniy manzarasi* (*sprachliches Weltbild*)ni yaratishdan iboratdir;
5. Olam lisoniy manzarasi bashariyat ijtimoiy hayoti, uning tarixi va madaniyatining asosiy harakatlantiruvchi kuchidir;
6. Inson o‘zining lisoniy quvvati bilan ona tilida shakllangan “haqiqiy” olam manzarasi o‘rtasidagi o‘zaro munosabat jarayonida tarixiy faoliyat yurita oladigan yagona mavjudotdir [5, 6].

Ma’lum bo‘ladiki, ushbu tamoyillar boshdan oxirigacha olamning ruhiy shakllanishi muammosi bilan chambarchas bog‘liq. Mazkur olti qoida tilshunoslikning umumiy tadqiqot ko‘lamini, shu bilan birga uning yo‘nalishlari hamda olingan natijalarni qanday talqin qilishi kerakligini ham belgilab beradi. Biroq mazkur qoidalardagi deyarli har bir tushuncha yanada aniqroq izohlanishga muhtoj. Ayrim holda terminning mazmunini ochib berish, boshqa hollarda esa uning mavjud ilmiy atamalar (jumladan boshqa fanlarda qo‘llanadigan terminlar) bilan munosabatini aniqlash zarur bo‘ladi. Shu bois biz ushbu muammolarning eng muhimlarini ko‘rib chiqishni maqsad qilamiz. Bundan ko‘zlangan maqsad tilshunoslik, falsafa va pedagogika o‘rtasidagi ilmiy muloqotni rivojlantirish, shuningdek ushbu nazariy g‘oyalar bilan til haqidagi bilimlar hamda til o‘qitish amaliyoti o‘rtasidagi bog‘liqlikni yanada jonlantirishdir.

Bunday yondashuv avvalo *tilni insonning ruhiy quvvati* sifatida tushunish g‘oyasidan boshlanadi. Biz insonning jismoniy, hissiy va ruhiy quvvati haqida bemalol gapiramiz. Ammo *lisoniy quvvat* (*Sprachkraft*) haqida so‘z borganda, kutilmaganda ayrim mulohaza paydo bo‘ladi. Aslida bu muammo xuddi Vilhelm fon Humboldt ning tilni *Energeia* deb talqin qilgan g‘oyasi [2, 176] mashhur iqtibos sifatida e’tirof etildi-yu, biroq sezilarli turtki bo‘lmaganiga o`xshaydi. Bu yerda V. Humboldt qo‘llagan *Energeia* tushunchasini shunchaki *quvvat* (*Kraft*) tushunchasi bilan almashtirish maqsad qilinmaydi. Aksincha ushbu ikki tushunchani yagona chiziqqa birlashtirib til hodisasining uch xil ko`rinishini farqlash lozim: til insoniyat hayotida, til jamiyat hayotida va til alohida shaxs hayotida. Agar biz insoniyat nuqtayi nazaridan *insonning lisoniy quvvati* haqida gapirsak, bu til qobiliyati, til salohiyati yoki til iste’dodi kabi iboralardan foydalanishdan ko‘ra ancha maqsadga muvofiqdir. Chunki bu atama nafaqat ayrim tushunchadagi noaniqliklarni bartaraf etadi, balki til hodisasining barcha ko‘rinishlarini ularning eng muhim mohiyati nuqtayi nazaridan tushuntirish imkonini beradi.

Agar til inson hayotini shakllantiruvchi, faqat insongagina xos bo‘lgan *ruhiy quvvat* bo‘lsa, u holda tilning barcha namoyon bo‘lish shakllari ham aynan shu asosiy xususiyatni o‘zida mujassam etgan bo‘lishi kerak. Bu esa quyidagilarni anglatadi: Yer yuzidagi mavjud tillar mohiyatiga ko‘ra xalqlar umumiy til quvvatining tarixiy “haqiqat”ga aylangan ifodasidir. Ayni shu fikr V. Humboldt ning tilni *Ergon* (faoliyat mahsuli) va *Energeia* (faoliyat) sifatida qarama-qarshi qo‘ygan mashhur g‘oyasining asl mazmunini tashkil etadi. Shu bilan birga har bir insonning nutqiy faoliyati ham uning insoniy til quvvatiga asoslanadi; u muayyan ona tilidagi faoliyati jarayonida yuzaga keladi hamda shaxsning tabiiy imkoniyatlari va hayotiy taqdiri bilan to‘ldiriladi. Ana shunday yondashuv Humboldt ning *Energeia* tushunchasini faqat alohida shaxsning nutqiy faoliyati sifatida talqin qilish mutlaqo yetarli emasligini yaqqol ko‘rsatadi. Bularning barchasi dastlab nazariy mulohaza bo‘lib tuyulishi mumkin. Ammo aynan shu nuqtai nazarga asoslangan *tilning ruhiy talqini* mazkur asosiy g‘oyaning eng nozik jihatlarigacha qanday ta`sirga ega ekanligini juda tez namoyon qiladi [5, 7].

Olingan natijalar va ularning tahlili. Avvalo lisoniy quvvat haqidagi g‘oya inson uning yordamida nimaga erishishi mumkinligi haqida o‘ylashga undaydi. Bizda shunday taxmin qilish uchun yetarli asoslar mavjud, chunki faqat odamga xos bo‘lgan til inson hayotini shakllantirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘lgan muayyan vazifani bajaradi. Biz bu vazifani *“olamni tilda ifodalash”* (*Worten der Welt*)[2] tushunchasi orqali izohlashga harakat qilamiz. Endi aynan shu yerda masalani batafsil ko‘rib chiqish zarur. Chunki “*olamni tilda ifodalash”* tushunchasi dunyoning ruhiy shakllanishi bilan bevosita bog‘liqdir. Shuning uchun ham bu iboraning mazmunini mutlaqo aniq ochib berish lozim. Buning uchun avvalo *worten* va *Welt* tushunchalarini alohida tahlil qilish kerak.

Worten atamasining mazmunini tushunish nisbatan osonroqdir. Buning sababi shundaki, u yangi yaratilgan termin hisoblanadi. Taxminan besh yil avval men “Worten der Welt” iborasini qo‘llay boshlaganimda, bu yangi terminning ilmiy muomalada qanday qabul qilinishini vaqt ko‘rsatishini yaxshi anglagan edim [5, 8]. Albatta, e’tirozlar ham bo‘ldi. Hatto mashhur olim G. Storz ham *worten* fe’lini juda “noqulay” yoki “noo‘rin” so‘z deb talqin qilgan edi. Biroq vaqt o‘tishi bilan ushbu termin ilmiy muomalada o‘z o‘rnini topa boshladi. Uni saqlab qolish uchun esa ikki asos mavjud. Birinchidan bu termin inson mavjudligining juda murakkab va jiddiy shartini ifodalaydi. Shu sababli uni ifodalash uchun kuchli va ta’sirchan so‘z ishlatilishi tabiiydir. Ikkinchidan avvalgi tajribalar shuni ko‘rsatdiki, aynan esda qoladigan, hatto bir oz noodatiy tuyuladigan termin orqaligina nazarda tutilayotgan hodisani ilmiy ongda aniq shakllantirish mumkin. *Worten* deganda *biror narsani so‘zga, ya’ni tilga aylantirish* tushuniladi. Bu yerda gap oddiy ma’noda "so‘z bilan ifodalash" (*mit Worten ausdrücken*) haqida emas, aksincha bu biror narsani til hodisasiga aylantirish, unga til orqali mavjudlik baxsh etish jarayonidir. Bu hol nemis tilidagi boshqa fe’llar bilan ham qiyoslanishi mumkin. Masalan, *Knecht – xizmatkor, qul; knechten - biror kishini qulga aylantirmoq*; *Münze – tanga, münzen – tanga zarb qilmoq* degan ma’noni anglatadi. Xuddi shunga o‘xshab *worten* ham *biror narsani so‘z orqali ifodalash,* ya’ni uni til olamiga olib kirishni bildiradi. Aynan mana shu - bir holatdan ikkinchi holatga o‘tkazish ma’nosi – lisoniy quvvat ifodasining asl mohiyatini eng aniq ko‘rsatadi.

Vilhelm fon Humboldt o`zining klassik asarlarida insonning lisoniy quvvati haqidagi mashhur qarashlarini qayta-qayta ta’kidlagan. Bunda u tilning tashqi olamni g‘oyaga aylantiruvchi ideal tabiati, olamni ruhiy mulkka aylantiruvchi ichki kuchi, hamda borliqni fikrga aylantiruvchi fundamental-tayanch amalini (Act der Verwandlung der Welt in Gedanken) nazarda tutadi [2, 471]. Men ham ushbu qarashlarga tayangan holda tilni insonning olamni ruhiy anglash yo‘li, ya’ni borliqni inson ong-shuurida mavjudlikka aylantiruvchi vosita sifatida izohlashga harakat qildim. Bularning barchasi shubhasiz nihoyatda muhim ilmiy xulosalardir. Shunga qaramasdan ular hanuz bizning ruhiy olamimizni shakllantiruvchi ushbu jarayonning mohiyatini to‘liq ochib bera olmaydi. Eng avvalo bu ta’riflar lisoniy quvvat amalga oshiradigan faoliyatning faqat bir tomonini, ya’ni tashqi olamni tafakkur qilish jarayoninigina ifodalaydi. Holbuki, “olamni tilda ifodalash” tushunchasi bundan ancha kengroqdir. U nafaqat lisoniy quvvatning barcha namoyon bo‘lish shakllarini o‘z ichiga oladi, balki til orqali shakllangan ushbu ruhiy quvvatni insonning yashash muhiti hamda keyingi yaratish, ijodkorlik va bunyodkorlik faoliyatining manbai sifatida ham talqin qiladi. Shu bois V. Humboldt ilgari surgan “tashqi olamni fikrga aylantirish” g‘oyasini yanada kengroq mazmunda tushunish zarur. Keyingi o‘rinlarda buning sabablari yanada yaqqol namoyon bo‘ladi.

Yangi terminning yaratilishi zarur va asosli ekanligi shu tariqa oydinlashadi. Biroq *olam (Welt)* tushunchasini lisoniy quvvatning ta’sir doirasiga kiritish bilan ancha murakkab muammo yuzaga keladi. *Olamni tilda ifodalash (Worten der Welt)* deganda ko‘p qirrali “olam” tushunchasining aynan qaysi tomoni

[2] Yoki *olamni so‘zda ifodalash*

nazarda tutiladi? Bu yerda kundalik tildagi “olam, dunyo” tushunchasi ko‘zda tutilganmi yoki muayyan falsafiy konsepsiyami? Tashqi dunyo (*Außenwelt*) va ichki dunyo (*Innenwelt*) o‘rtasidagi keng ma’nodagi farqni til nazariyasida ham qo‘llash mumkinmi? Tilning *ruhiy olami, olamni tilda ifodalash, olam lisoniy manzarasi* kabi tushunchalar bu yerda turli ma’nolar aralashib ketishi hamda chalkashlikka sabab bo‘lmaydimi? Ernst Rothakker haqli ravishda tilshunoslarni aynan shu masalada aniq ilmiy pozitsiyani egallashga chaqirgan edi. Uning fikricha, hech bo‘lmaganda hal qiluvchi nazariy masalalarda noaniqlikka yo‘l qo‘ymaslik zarur. E. Rothakkerning o‘zi *olam* deb til mazmunan talqin qilgan, yaratgan va ifodalagan *voqelik*ni tushunadi. U bunday olamni insondan mustaqil mavjud bo‘lgan “voqelik” (Wirklichkeit) tushunchasidan farqlaydi. Natijada u quyidagi xulosaga keladi: “Biz yashayotgan butun olam va uning qoidalariga tayanadigan faoliyatimiz tilning mohiyatini tashkil etadi, boshqacha aytganda u til orqali shakllantirilgan olamdir” [3, 39]. Inson *olami* va insondan mustaqil mavjud *voqelik*ni bir-biridan farqlash zarur. Bunday tafovut ilgari ham turli terminlar yordamida u yoki bu darajada ifodalangan.

E. Rothakker nazariyasining yangiligi shundaki, u *olam* terminini izchil ravishda *inson yashaydigan olam* ma’nosida qo‘llaydi va uni insonning *lisoniy quvvati* bilan uzviy bog‘laydi. Natijada til va olam o‘rtasidagi munosabat quyidagicha tushuniladi: borliqning biz biladigan barcha hodisalari til orqali ifodalanadi, boshqacha aytganda lisoniy quvvat orqali inson borliqni idrok etadi, uning mavjudligini anglaydi.

Ayrim murakkab masalalarni yuzaga chiqarsa-da, nazarimda E. Rothakkerning bu taklifini jiddiy o‘ylab ko‘rish lozim. Agar uning *olam* tushunchasini faqat inson yashaydigan olam bilan bog‘lash maqsadi amalga oshsa, unda *olamni tilda ifodalash* tushunchasini haqiqatan ham olamning ruhiy-ma’naviy shakllanishining eng muhim ifodasi sifatida qabul qilsa bo`ladi. Shunga qaramay ikki muhim masala ochiq qoladi. Birinchi masala shundaki, kundalik tilda *olam* so‘zi ko‘proq insonning ichki olamiga ishora qiladimi yoki tashqi olamiga? Agar ko‘pchilik uni tashqi olam ma’nosida tushunsa, bu ilmiy terminning mazmunini anglashni murakkablashtirishi mumkin. Bu borada *olam* so‘zining tarixiy taraqqiyoti ma’lum darajada yordam beradi. Yohannes Erben 1954-yilda *Grimm lug‘ati* uchun yozgan “Welt” maqolasida qadimgi yuqori nemis tilidagi *wer-alt* shaklida *wer* komponenti avvalo inson ma’nosini anglatganini ko‘rsatadi. Keyinchalik lotin tilidagi *saeculum* va *mundus* so‘zlarining ta’siri ostida mazkur terminning ma’nosi kengaygan bo‘lsa-da, *inson yashaydigan dunyo* haqidagi tasavvur saqlanib qolgan. Agar Immanuel Kantning “kopernikcha burilish” g‘oyasi izchil davom ettirilganida, aynan *insonning ruhiy olami* uning haqiqiy yashash muhiti sifatida markaziy o‘rinni egallashi kerak edi. Shu nuqtayi nazardan E.Rothakkerning “olam” va “voqelik” tushunchalarini qat’iy farqlashi ilmiy jihatdan asoslangan hisoblanadi. Y. Erben keltirgan ko‘plab misollar ham bunday yondashuvning samaradorligini ko‘rsatadi. Ammo bunday qo‘llanish hali umumxalq tilida ustuvorlik kasb etmagan. Shunga qaramay falsafa va tilshunoslik nuqtayi nazaridan qat’iy nazar, kundalik tilda ham “olam” va “voqelik” tushunchalarini aniq farqlash ko‘nikmasini shakllantirish insoniyat tafakkuri uchun nihoyatda muhim vazifa bo‘lib qolmoqda. Bundan tashqari yana ikkinchi masala ham mavjud. Agar E. Rothakker *inson yashaydigan dunyo*sini *tilda ifodalangan olam*ga tenglashtirsa, eski muammo yana boshqa shaklda yuzaga chiqadi. Ya’ni insondan mustaqil mavjud *voqelik* bilan inson yashaydigan *olam* o‘rtasidagi qarama-qarshilik saqlanib qoladi. Shu sababli muammoning yechimi ehtimol *olam* tushunchasini ichki jihatdan ikki qismga ajratishda bo‘lsa kerak:

- inson yashaydigan dunyo (*gelebte Welt*);
- tilda ifodalangan olam (*gewortete Welt*).

Garchi inson til degan xilqatga ega bo‘lguncha davridagi idrok va tafakkurini uning lisoniy quvvatidagidan qat’iy ajratish amalda juda mushkul bo’lsa-da, nazariy jihatdan bunday farqlash zarurdir. Bu holda *tilda ifodalangan olam* tarkibida bir tomondan insonning tilga ega bo‘lguncha tajribasi, ikkinchi tomondan esa inson ichki dunyosida jo bo‘lgan tilning ruhiy quvvati qanday uyg‘unlashishini alohida tahlil qilish imkoniyati paydo bo‘ladi. Bu turdagi ajratishning o‘zi ham mazkur "olam" tushunchasining murakkab tabiatini to‘liq tushuntirib bera olmaydi. Shu sababli biz hech bo‘lmaganda *tilda ifodalangan olam* (*gewortete Welt*) tarkibida *insondan avval mavjud bo‘lgan voqelik, tilgacha bo‘lgan insonning hayotiy tajribasi* va *tilning o‘ziga xos ruhiy faoliyati*ning qay darajada ishtirok etishini tizimli ravishda farqlashga harakat qilishimiz lozim. Insondan mustaqil mavjud bo‘lgan *voqelik* (*Wirklichkeit*) inson ongida ikki idrok etiladi. Birinchi bosqichda u insonning sezgi organlari orqali idrok qilinadi va shundan keyingina inson uchun olamning tarkibiy qismiga aylanadi. Ikkinchi bosqichda esa ushbu idrok etilgan olam tilning ruhiy jarayonidan o‘tib, *tilda ifodalangan olam*ning tarkibiga kiradi. Bu murakkab jarayonda yana bir muhim savol tug‘iladi: insonning lisonga bog‘liq bo‘lmagan boshqa qobiliyatlari obyektiv voqelikni idrok etishda qanday vazifasini bajaradi va qay darajada faol ishtirok etadi? Bundan tashqari insonning tilgacha mavjud bo‘lgan ijtimoiy olami ham mavjud. Bu olam insonning tarixiy hayotiy tajribasini o‘z ichiga oladi va u ham til

yordamida idrok etilishi zarur, chunki faqat shundagina u tilda ifodalangan olamning tarkibiga kirishi mumkin. Va nihoyat uchinchi omil – lisoniy quvvatning faoliyat tarzidir. Chunki til nafaqat mavjud voqelikni ifodalaydi, balki o‘zi ham mustaqil ravishda *ruhiy olamni yaratish* qobiliyatiga ega. Shunday qilib, birinchi ikki omil *til orqali ifodalangan* (*verwortet*) *olam*ni tashkil etsa, uchinchi omil bevosita *til tomonidan yaratilgan* (*erwortet*) *ruhiy olam*ni hosil qiladi. Bu mulohazalar ancha murakkab tuyulishi mumkin, biroq E.Rothakker ilgari surgan g‘oyalarni shu tarzda ma`lum darajada izohlash va terminologik farqlarni tushunish imkonini beradi.

Lisoniy olam (*Sprachwelt*) tushunchasi bilan bog‘liq holda yana ikki muhim nazariy tushunchani ko‘rib chiqish lozim. Aynan ular keyinchalik *tilning oraliq olami* (*sprachliche Zwischenwelt*) va *olam lisoniy manzarasi* (*sprachliches Weltbild*) tushunchalarining shakllanishiga asos bo‘lgan. Tilning oraliq olami g‘oyasi avvalo uzoq tarix davomida shakllangan tabiiy tillarni kuzatish natijasida paydo bo‘lgan. Mazkur g‘oya ham zamonaviy tadqiqot metodlari sinovidan o‘tishi lozim. Uning kelib chiqishida Vilhelm fon Humboldt ning quyidagi g‘oyasi turtki bo‘lgan: „*Agar inson qalbida til faqat o‘zaro tushunish uchun muloqot vositasi emas, balki inson ruhi o‘z quvvatining ichki faoliyati yordamida o‘zi bilan tashqi dunyo o‘rtasida bunyod etadigan haqiqiy olam ekanligi haqidagi tuyg‘u uyg‘onsa, shunda u tobora ko‘proq narsani tilning o‘zidan topib o‘ziga qaytarish orqali uni tobora boyitish yo‘lidan borayotganligi anglashiladi.“* Ushbu fikrdan muhim xulosa shuki, tilning oraliq olami hech qachon alohida shaxs tomonidan yaratilmaydi, balki faqat xalq yo insonlar hamjamiyatining umumiy ijodi sifatida mavjud bo‘ladi. Unda har bir xalq yoki insonlar jamoasining ona tilisi oraliq olamni hosil qilib umumiy ruhiy faoliyat tarzida namoyon bo‘ladi. Tilning bunday *ruhiy olami* muayyan insonlar guruhi bilan uzviy munosabatda bo‘lganligi sababli uning mavjudligi haqidagi savol tabiiy ravishda yuzaga keladi va unga sotsiologik yondashuv orqali javob topish mumkin. Sotsiologik nuqtai nazarga ko‘ra, ona tili barcha boshqa *madaniy qadriyatlar* singari o‘ziga xos mavjudlik shakliga ega bo‘lgan *ijtimoiy obyektiv hodisa*dir. Bunday mavjudlik avvalo uning jamiyat hayotiga ko‘rsatadigan ta’siri orqali namoyon bo‘ladi. Shu sababli *ona tilining haqiqiy mavjudligi* (*Wirklich-Sein der Muttersprache*) haqida gapirish taklif etilgan edi. Bu fikr bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini saqlab qolmoqda. Biroq endilikda uni bevosita lisoniy quvvat g‘oyasi orqali sodda tushuntirish mumkin: insonning lisoniy quvvati tarixiy taraqqiyot davomida umuminsoniy va individual tarzda to‘liq namoyon bo‘lmaydi, balki u xalqlar va insonlar jamoasining o‘zaro hamkorligi natijasida rivojlanadi. Har bir til jamoasi o‘z a’zolarining individual lisoniy quvvatini yagona umumiy ruhiy quvvatga birlashtiradi. Mana shu umumiy lisoniy quvvatning tarixiy shakli *ona tili* hisoblanib aynan u *olam lisoniy manzarasi*ni belgilab beradi. Ona tili o‘z mohiyatiga ko‘ra muayyan xalqlar lisoniy quvvatining namoyon bo‘lishidir. Lisoniy quvvatning namoyon bo‘lishi esa olamni tilda ifodalashdan iborat bo‘lganligi sababli, “konkret” kuchli til nazariyasining asosiy qoidasi har bir ona tilini, xoh u nemis, xoh fransuz yoki yapon tili bo‘lsin, ayni shu tilda so‘zlashadiganlar jamoasi tomonidan olamni so‘z vositasida shakllantirish jarayoni sifatida belgilash mumkin. Boshqacha aytganda, lisoniy quvvatning doimiy faoliyati sifatida dunyoni so‘z orqali ifodalash, ya’ni til hamjamiyati tomonidan yashab idrok qilinayotgan olamning lisoniy manzarasini barpo etilishidir. Bu jarayon makon va zamon doirasida insonlar guruhining to‘plangan lisoniy quvvatiga tayangan holda amalga oshadi.

Muhokama. Olamning ruhiy shakllanishidagi tilning o‘rni avvalo ona tili, ya’ni tilning ijtimoiy mavjudligi nuqtayi nazaridan chuqur tahlil qilinishi zarur edi. Chunki aynan xalqlarning ona tillari Yer yuzidagi lisoniy hayotning asosiy oqimlarini tashkil etadi. Biroq bu yondashuv alohida shaxsning lisoniy qobiliyatiga soya solmasligi lozim. Har qanday ulkan daryoni son-sanoqsiz tomchilar tashkil etgani kabi, til jamoasi ham alohida shaxslardan iborat. Shuning uchun endi lisoniy quvvat va olamning ruhiy shakllanishi g‘oyasi asosida lisoniy shaxs (*sprachliche Persönlichkeit*) qanday tushunilishini ko‘rib chiqish zarur. Bu yerda alohida shaxs ikki xil maqomda namoyon bo‘ladi:

1. til jamoasining a’zosi;
2. lisoniy qobiliyatga ega individual shaxs.

Mazkur ikki omil o‘rtasidagi muvozanatni to‘g‘ri belgilash oson emas. Avvalo shuni ta’kidlash kerakki, har bir inson tug‘ilganidan boshlab ona tili qonuniyatlari ta’siri ostida shakllanadi. Tilni egallash jarayonida u asta-sekin ona tilining ruhiy olamini o‘zlashtiradi. Bu olam unga shu qadar tabiiy bo‘lib qoladiki, u uni hayotining ajralmas qismi sifatida qabul qiladi va odatda umrining oxirigacha shu ruhiy makon doirasida yashaydi. Demak mazkur jarayonning mohiyati ona tilida shakllangan ruhiy olamning individual ongda voqelanishidir. Bu yerda ustuvorlik aniq, har bir yangi tug‘ilgan bolaning vazifasi ona tilini imkon qadar mukammal egallash, ya’ni amalda mavjud bo‘lgan til me’yorlariga imkon qadar to‘liq moslashishdan iborat. Shaxsning ruhiy-ma’naviy shakllanishida ona tilining ahamiyati inson hayotining eng asosiy qonuniyatlaridan biridir. Hatto alohida shaxsning ruhiy hayoti ham taqdirida bitilgani kabi til

tomonidan belgilanadi va uning ta’siri insonning barcha nutqiy va til bilan bog‘liq faoliyatida namoyon bo‘ladi. Ming yillar davomida millionlab insonlar tomonidan bir tilda shakllangan umumiy lisoniy quvvat ona tilining ulkan tarixiy kuchi sifatida ko`rinadi. Shunga qaramasdan har bir insonning lisoniy shaxs sifatida mustaqilligini ta’minlovchi jihatlarga ham e’tibor qaratish lozim. Tan olish kerakki, inson ona tili ta’siri ostida yashaydi. Ammo u tug‘ma ravishda insonga xos lisoniy quvvatga ega va uni, albatta, til jamoasining umumiy faoliyatiga qo‘shadi. Shu tarzda u lisoniy quvvatini faqat o‘z shaxsiy qobiliyati, iste’dodi va taqdiriga muvofiq rivojlantiradi.

Shu tariqa individual hayotning asosiy lisoniy hodisalari sifatida farqlanadigan an`anaviy tilni o‘zlashtirish (Spracherlernung), tilni egallash (Sprachbesitz) va tildan foydalanish (Sprachverwendung) lisoniy ne’matning namoyon bo‘lishi, ya’ni insonning lisoniy quvvatini shaxsiy hayot shart-sharoitlariga muvofiq ravishda ona tilining ruhiy olamida ro‘yobga chiqarish jarayoni sifatida tushunilishi lozim. Bunda ushbu manzara zamiridagi asosiy holat yanada ravshanlashadi: bu − individual hayotning shakllanishida ham til bilan ruhiy olam o‘rtasidagi uch tomonlama uzviy bog‘liqlikdir. Ana shu nuqtayi nazardan insonning lisoniy shaxs sifatidagi barcha masalalarini, ya’ni uning tilni egallashidan boshlab lisoniy faoliyatining turfa shakllarigacha o‘rganish lozim.

Inson individual va jamoaviy lisoniy rivojlanish o‘rtasidagi ana shu dialektik munosabatlar jarayonida, garchi u lisoniy jihatdan faqat o‘z holiga tashlab qo‘yilgan bir kunlik mavjudot bo‘lib qolganda ham, tarixiy faoliyat yuritishga qodir shaxs bo‘ladi.

Mazkur mulohazalar yakunida ularning pedagogik ahamiyatiga ham nazar tashlash maqsadga muvofiqdir. Bu g‘oyalarni ishlab chiqishda til o‘qitish amaliyotidan olingan tajribalar ham muhim o‘rin tutganligi sabab ularning alohida asosiy jihatlarini yoritishda ushbu g‘oyalardan kelib chiqadigan pedagogik xulosalarni e’tibordan chetda qoldirish mutlaqo mumkin emas. Bu yerda ko‘rsatib o‘tilgan asosiy g‘oyalarning har biri til ta’limining maqsadlari, rejalari va tadbig`iga singdirilishini talab etadi. Bular insonning lisoniy quvvati, olamni tilda ifodalash (*Worten der Welt*), ona tilining til hamjamiyati jamlagan lisoniy quvvatning voqelanishi sifatida, ona tiliga xos olamning lisoniy manzarasi, tilning tarix va madaniyatga ta’siri, lisoniy shaxsning shakllanishi va rivojlanishidir. Mazkur nuqtayi nazardan hatto bittasining o‘ziyoq ona tili ta’limining ko‘plab jihatlarini qayta tashkil etish zaruratini yuzaga keltiradi. Ushbu g‘oyalar yaxlit holda til ta’limida shunday tub o‘zgarishni yuzaga keltiradiki, uning ko‘lami tilshunoslikning o‘zida shakldan ruhiy mohiyatga yo‘naltirilgan yondashuvga o‘tishdan kam emas.

Xulosa. Leo Vaysgerberning mazkur konsepsiyasi tilni insonning ruhiy faoliyati va madaniy mavjudligining asosiy shakli sifatida talqin etishga xizmat qiladi. Uning lisoniy quvvat, olamni tilda ifodalash va olam lisoniy manzarasi haqidagi nazariyalari bugungi kunda kognitiv tilshunoslik, lingvokulturologiya, psixolingvistika hamda antropotsentrik tilshunoslikning metodologik asoslaridan biri sifatida o‘z ilmiy ahamiyatini saqlab qolmoqda. Mazkur g‘oyalar til va tafakkur, til va madaniyat, til va borliq o‘rtasidagi murakkab munosabatlarni chuqurroq anglashga xizmat qilishi bilan birga, zamonaviy lingvistik tadqiqotlar va xorijiy tillarni o‘qitish metodikasini rivojlantirish uchun ham muhim nazariy manba bo‘lib qolmoqda.

ADABIYOTLAR:

1. *Erben J. Wörterbuch des Unmenschen. Muenchen. DeGruyter, 1954. S. 104.*
2. *Humboldt W. Gesammelte Schriften. Band VII. Erste Abteilung: Werke VII. Erste Hälfte .− Berlin: B. Behr´s Verlag, 1907.*
3. *Rothacker E. Ontologische Voraussetzungen des Begriffs Muttersprache. Festschrift zu L.Weisgerber, 1959. S. 39.*
4. *Sprache – Schlüssel zur Welt. Festschrift für Leo Weisgerber. Hrsg. von H. Gipper. Düsseldorf, 1959.*
5. *Weisgerber L. Sprache und geistige Gestaltung der Welt. In: Zeitschrift für Pädagogik. 3. Auflage. Düsseldorf: Schwann Verlag, 1964. S. 5-17.*
6. *Гехтляр С. Я. Вильгельм фон Гумбольдт: путь лингвистической концепции сквозь века: к построению и содержанию университетского курса лекций по истории и теории языкознания // Проблемы русского и общего языкознания: межвузовский сборник научных трудов, посвящённый Году русского языка. Елец: ЕГУ им. И. А. Бунина, 2008. Вып. 6. С. 11-22.*
7. *Гришаева Л. И., Попова М. К. Картина мира как проблема гуманитарных наук // Картина мира и способы её репрезентации: научные доклады конференции «Национальные картины мира:*

язык, литература, культура, образование» /ред. Л. И. Гришаева, М. К. Попова. Воронеж: ВГУ, 2003. С. 13-38.

8. Гумбольдт В. О различии строения человеческих языков и его влиянии на духовное развитие человеческого рода: извлечения // Звегинцев В. А. История языкознания XIX-XX веков в очерках и извлечениях. М.: Просвещение, 1964.Ч. 1. С. 85-105.

9. Даниленко В. П. Вильгельм фон Гумбольдт и неогумбольдтианство. М.: Книжный дом «ЛИБРОКОМ», 2010. 216 с.

10.Демьяненко М. А. Концепция языка Франца Николауса Финка (1867–1910) // Вестник СамГУ. 2006. № 5/1 (45). С. 191-197.

11.Жирмунский В. М. Жизнь и творчество Гердера // Гердер И. Г. Трактат о происхождении языка. Изд-е 2-е. М.: Издательство ЛКИ, 2007. С. 7-132.

12. Потебня А. А. Мысль и язык. 4-е изд. Одесса: Гос. изд-во Украины, 1922. 185 с.

13.Радченко О. А. Лингвофилософские опыты В. фон Гумбольдта и постгумбольдтианство // Вопросы языкознания. 2001. № 3. С. 96-125.

14.Радченко О. А. Понятие языковой картины мира в немецкой философии языка XX века // Вопросы языкознания. 2002. № 6. С. 140-160.

15.Радченко О. А. Язык как миросозерцание: лингвофилософская концепция неогумбольдтианства. Изд-е 3-е, стереотипное. М.: КомКнига, 2006. 312 с.